O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO BILAN TRANSPORT-LOGISTIKA HAMKORLIGI: BRI DOIRASIDA

Laziza Sadullayeva

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan transport-logistika hamkorligi hamda uning Belt and Road Initiative doirasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mamlakatning tranzit salohiyati, mintaqaviy transport yo‘laklari, qo‘shni davlatlar bilan amaliy hamkorlik yo‘nalishlari va yangi infratuzilma loyihalari yoritilgan. Shuningdek, transport-logistika tizimidagi muammolar, mavjud imkoniyatlar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi strategik logistika markazi sifatidagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, transport-logistika, tranzit, mintaqaviy hamkorlik, infratuzilma, Belt and Road Initiative.*

Аннотация. В данной статье анализируется транспортно-логистическое сотрудничество Республики Узбекистан со странами Центральной Азии, а также его значение в рамках Belt and Road Initiative. Освещаются транзитный потенциал страны, региональные транспортные коридоры, практические направления сотрудничества с соседними государствами и новые инфраструктурные проекты. Также рассматриваются проблемы транспортно-логистической системы, существующие возможности и перспективные направления развития. В результате исследования обосновывается роль Узбекистана как стратегического логистического центра Центральной Азии.

Ключевые слова: *Узбекистан, Центральная Азия, транспортная*

логистика, транзит, региональное сотрудничество, инфраструктура, Belt and Road Initiative.

Abstract. This article analyzes the transport and logistics cooperation of the Republic of Uzbekistan with the countries of Central Asia and its significance within the framework of the Belt and Road Initiative. The study highlights the country's transit potential, regional transport corridors, practical areas of cooperation with neighboring states, and new infrastructure projects. It also examines the problems of the transport-logistics system, existing opportunities, and future development prospects. As a result, the role of Uzbekistan as a strategic logistics hub in Central Asia is substantiated.

Keywords: *Uzbekistan, Central Asia, transport logistics, transit, regional cooperation, infrastructure, Belt and Road Initiative.*

Bugungi kundagi globallashuv davrida trnasport-logistika tizimi davlatlarning taraqqiyotida muhim rol o‘ynayotgan tarmoqlardan biri desak bo‘ladi. U davlarning iqtisodiy yuksalishida, tashqi savdo aloqalari va mintaqaviy integratsiyasini rivojlantirishda muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoni yo‘qligini sababli, ular uchun zamonaviy transport yo‘llarini ochish muhim hisoblanadi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining mintaqadagi boshqa davlatlar bilan do‘stona aloqalari, transport logistika hamkorliklari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki butun Markaziy Osiyo tarqqiyotining barqarorligi uchun zarurdir.

Bu jarayonga katta hissa qo‘shayotgan asosiy tashabbuslardan biri Xitoy Xalq Respublikasining "Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi hisoblanadi. Bu tashabbus qadimiy savdo yo‘llarini zamonaviy transport-logistika bilan bog‘lab Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishda xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, boshqa davlatlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochishga ham qaratilgan bo‘lib,

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston bu tashabbusda boshqa davlatlarga nisbatan muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston geografik jihatdan barcha mintaqa davlatlari bilan chegaradosh yagona davlatlardan biri bo‘lib, bu imkoniyat unga tranzit markaz sifatida rivojlanish imkonini beradi. O‘zbekistondan sharq bilan g‘arbni, shimol bilan janubni bog‘lovchi quruqlik yo‘llari o‘tadi.

So‘nggi yillarda mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirishda hamda takomillashtirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Bular qatoriga xalqaro aeroportlar, yangi temiryo‘l tarmoqlari va logistika markazlari kiradi. Jumladan, Termiz transport xabi[1], Navoiy xalqaro logistika markazi[2] va Angrendagi logistika zonalari mintaqaviy aloqalarda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yangi boshqichga ko‘tarildi. Savdo aloqalarining kengayishi ushbu mintaqa davlatlari o‘rtasida xalqaro transport koridorlariga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Bu jarayonda "Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi Markaziy Osiyoni Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi ko‘prikka aylantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan transport hamkorligi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ikki davlat o‘rtasida temir yo‘l va avtomobil tashuvlari yaxwi rivojlangan bo‘lib, yuklarning katta qismi aynan shu yo‘l orqali o‘tadi. Termiz – Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar temir yo‘li qurilishi borasida Qozog‘iston tomoni O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlashini ma’lum qildi. – "*Ishonchim komilki, loyihaning amalga oshirilishi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy kommunikatsiyalar va savdoni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki Janubiy Osiyo mintaqasining yirik dengiz portlariga chiqish yo‘llari ochiladi*”, – dedi Qozog‘iston Transport vaziri Marat Karabayev.

Xususan, yuk tashuvlari jarayonini jadallashtirish maqsadida mamlakatlar o‘rtasida ruxsatnoma blankalarini elektron almashish “E-Permit” tizimi amaliyotga

tatbiq etilganligini tomonlar mamnuniyat bilan qayt etib o‘tishdi[3]. O‘zbekiston Qozog‘iston orqali Rossiya, Kavkaz va Yevropaga bozorlariga chiqish imkoniyatiga, BRI doirasida esa Xitoydan kelayotgan yuklar aynan Qozog‘iston orqali O‘zbekistonga kirib kelib, keyin boshqa davlatlarga yo‘naltiriladi.

Qirg‘iziston bilan hamkorlikda Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li muhim ahamiyatga ega. Temir yo‘l loyihasining umumiy qiymati $4,7 mlrdga baholanmoqda. Shundan qariyb $2,3 mlrdi Xitoy tomonidan 35 yil muddatga qo‘shma loyiha kompaniyasiga kredit sifatida ajratiladi va ushbu mablag‘ning qaytarilishi bevosita kompaniya tomonidan amalga oshiriladi. Qolgan $2,3 mlrd esa uchta davlat tomonidan qo‘shma kompaniyaning ustav kapitaliga quyidagi ulushlarda kiritiladi: Xitoy – 51%, Qirg‘iziston va O‘zbekiston – har biri 24,5% dan.Mazkur temir yo‘li qurilishi 2024-yilning 27-dekabrida boshlangan bo‘lib, loyihaning umumiy qiymati $4,7 mlrdga baholanmoqda[4]. Qurilish ishlariga 2024 yil 27 dekabrda start berilgan, qurilish tugallanishi: 2029-2030 yil. Yuk tashish hajmi: 15 million tonna. Ushbu yo‘nalish tranzitni 900 kilometrga va 7-8 kunga qisqartiradi [5]. Bu yo‘nalish Farg‘ona vodiysi hududlarida iqtisodiy faollikda oshirishga ham xizmat qiladi.

Turkmaniston bilan transport-logistika hamkorligi dengizga chiqish imkoniyati borasida muhim ahamiyatga ega. Ikki davlat o‘rtasida yuk tashish hajmi o‘sib bormoqda, bojxona-logistika tartiblari soddalashtirilmoqda. Tomonlar avtomobil va temir yo‘l yo‘nalishlarini kengaytirish niyatida ekanini ta’kidlab, tranzit hajmini oshirish va yangi bozorlarga chiqish uchun Turkmanboshi portini birgalikda rivojlantirish, poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni qayta tiklashga kelishib oldilar. Bu O‘zbekistonga eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar beradi[6].

Tojikiston bilan ham transport-logistika hamkorligi jadal rivojlanib bormoqda. Chegara punktlarining ochilishi, yuk tashuvlarining ortishi ikki davlat o‘rtasida savdo aloqalarini tiklab, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlamoqda.

"Bir kamar, bir yo‘l" tashabbusi O‘zbekiston uchun yangi transport koridorlarini ochmoqda. Jumladan, Xitoy-Markaziy Osiyo-Yevropa yo‘nalishi, Trans-Afg‘on temir yo‘li loyihalari yuk tashish muddatlarini qisqartirib, logistika xarajatlarini kamaytirishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu tashabbus infratuzilmaga xorijiy investitsiyalar jalb qilishda, yangi ish o‘rinlari yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Ammo, bu strategiya orqali ham ba’zi muammolarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, transport tariflari yuqoriligi, ayrim yo‘nalishlardagi xavfsizlik muammolari, chegara punktlarida to‘siqlar va geosiyosiy raqobat taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tayin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan transport-logistika hamkorligi mintaqaviy barqarorlik uchun muhim hisoblanadi. Mamlakatning geografik qulay joyda joylashuvi, faol tashqi siyosati uni Markaziy Osiyoning asosiy tranzit markaziga aylantirmoqda. BRI tashabbusi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqib, O‘zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Agar mavjud muammolar hal etilsa, mamlakat nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevroosiyo transport tizimida ham muhim o‘rin egallashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Termiz shahridagi xalqaro transport-logistika xabi BMT Global ta’minot tarmog‘iga kiritildi. URL: https://gov.uz/oz/mfa/news/view/35843
2. “Navoiy” xalqaro logistika markazi faoliyati takomillashtiriladi. URL: https://www.uzreport.news/economy/navoiy-xalqaro-logistika-markazi-faoliyati-takomillashtiriladi
3. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari muhokama qilindi.URL: https://mintrans.uz/news/o-zbekiston-va-qozog-iston-o-rtasidagi-hamkorlikning-asosiy-yo-nalishlari-muhokama-qilindi
4. Xitoy-Qirg‘izston-O‘zbekiston temir yo‘lini 2030-yilda ishga tushirish

rejalashtirilmoqda. URL: https://www.spot.uz/oz/2026/03/24/railway/

5. O‘zbekiston uchun tarixiy imkoniyat. Yevropa va Xitoy yangi savdo yo‘lini qurmoqda. URL: https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-uchun-tarixiy-imkoniyat-yevropa-va-xitoy-yangi-savdo-yolini-qurmoqda_817558
6. O‘zbekiston va Turkmaniston sherikligi mustahkamlanmoqda. URL: https://uza.uz/ru/posts/ozbekiston-va-turkmaniston-sherikligi-mustahkamlanmoqda_794319